

FANLARARO HAMKORLIK ASOSIDA O'QUVCHILARNING SPORT IDEALI HAQIDAGI BILIMLARNI RIVOJLANTRISHNING NAZARIY METADALOGIK ASOSLARI

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali Yakka kurash sport turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasida katta o'qituvchisi

Xamroliyev Mirodiljon Maxamadjonovich

Annotatsiya: Uch fanlararo turmush korxonalari orqali maqola sog'lom tarzi va sport idealini o'quvchilarga targ'ib etishning samarali metodikasini ishlab chiqarish ishlab chiqarishga bag'ishlangan. Ush metodika orqali o'quvchilar sog'lom turmush tarzining qarashlarini anglab yetadilar va sportga bo'lgan natijalarni o'rtadi. Maqolada fanlararo integratsiya, amaliy mashg'ulotlar va innovation ta'lim usullari haqida ma'lumot beriladi.

Аннотация: Статья посвящена разработке эффективного метода пропаганды здорового образа жизни и спортивных идеалов среди студентов через три междисциплинарных предприятия жизни. Благодаря этой методике студенты понимают концепции здорового образа жизни и изучают результаты занятий спортом. В статье представлена информация о междисциплинарной интеграции, практической подготовке и инновационных методах обучения.

Annotation: The article is devoted to the development of an effective method of promoting healthy lifestyle and sports ideals to students through three interdisciplinary life enterprises. Through this methodology, students understand the concepts of a healthy lifestyle and learn the results of sports. The article provides information about interdisciplinary integration, practical training and innovative educational methods.

Kalit so'z: sport, vazifasidan, zarurati, fiziologik, pedagogik, ideal, dolzarb, madaniyat, dolzarb, sog'lom turmush.

Ключевые слова: спорт, задача, необходимость, физиологический, педагогический, идеальный, текущий, культура, текущий, здоровый образ жизни.

Key words: sport, task, necessity, physiological, pedagogical, ideal, current, culture, current, healthy life.

KRISH

Jahonda fanlararo hamkorlik asosida sport pedagogikasini rivojlantirish, yoshlarda sportga qiziqishni oshirish, sport ideali to'g'risidagi bilimlarini o'stirish va bu orqali jamiyatda sog'lom hayot ko'rsatkichlarini oshirish, insonlar organizmini har tomonlama rivojlantirish, fiziologik funktsiyalarini takomillashtirish va sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida baholanmoqda. Shu bois ko'plab davlatlarda ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish, sport ta'limini takomillashtirish va sportning inson shaxsini, qirralarini shakllantirish vazifasidan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Shuningdek, o'quvchilarni sportga yo'naltirish orqali ularni sog'lom turmush tarziga tayyorlash, jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida fanlararo hamkorlik asosida sport pedagogikasini rivojlantirish, yoshlarda sportga qiziqishni oshirish, sport ideali to'g'risidagi bilimlarini o'stirish, jismoniy tarbiya ta'limini takomillashtirish bilan birga sport turlariga, sog'lom turmush tarziga qiziqishni oshiruvchi ta'sir vositalarini takomillashtirish orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzi madaniyati, sog'lom hayot asoslariga doir bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda va erishilgan natijalar asosida tizimli xalqaro standartlar ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga xalqaro tadqiqotlarda ta'lim tizimida ommaviy sport jarayonini takomillashtirish, yoshlarni sport orqali sog'lomlashtirish, sog'lom turmush tarziga tayyorlashning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish, ta'lim sifati va samaradorligiga erishishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu bois, dunyoning ilmiy salohiyati yuqori bo'lgan davlatlari tajribasi asosida o'quvchi-yoshlarni sport ideali haqidagi bilimlarini rivojlantirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, tajriba almashish, sportga qaratilgan innovatsion ta'limning pedagogik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va bu orqali jamiyatda sog'lom turmush tarzini, sog'lom hayot kechirish tamoyillarini yaratish vazifalari kundan-kunga ortib bormoqda.

ASOSIY QISIM

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, ob'ekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobat siyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Fanlararo hamkorlik asosida o'quvchilarning sport ideali haqidagi bilimlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari» deb nomlangan birinchi bobida fanlararo hamkorlik asosida o'qitishning ijtimoiy-pedagogik zarurati va o'quvchilarning sport ideali haqidagi bilimlarini rivojlantirish asoslari tadqiq etilgan.

Ta'limning globallasuvi sharoitida fanlararo uzviylikni kengroq qo'llash ayni zaruriyatdir. Fanlararo uzviylik tamoyiliga tayanish ta'lim muassasalari o'quv jarayoni uchun tadbqiqiy tus olishi lozim. Fanlararo uzviylik tamoyili turdosh o'quv fanlararo munosabatlarning murakkab jihatlar to'liq o'zlashirilishini ta'minlab, bilimlarning ichki mohiyatiga kirib borilishini ta'minlaydi, natijada turli tizimlar ichki aloqadorlik, integrati yaxlidlik vujudga keladi.

O'quv jarayonida fanlararo hamkorlikni amalga oshirilishi ta'lim sifatiga kuchli ta'sir ko'rsatib, ta'limni modernizatsiyalash, innnovatsion o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

Yondashuv - bu ob'ektni o'rganishning usul va uslublari uyg'unligidir. Bunda ob'ektning tashqi olam bilan bog'lanishi, uning funktsional o'ziga xosligi, xususiyatlari hamda namoyon bo'lishi umumiy jarayonga kirib ketadi. Yangi yondashuvlar asosan tadqiqotning maqsadidan kelib chiqadi. Fanda yondashuvlar cheklanmagan xarakterga ega. Eng asosiysi, ular ilmiy dunyoqarashga taa'lluqli bo'lmog'i darkor. Aynan ilmiy dunyoqarash turli yondashuvlarning vujudga kelishiga, rivojlanishiga va fan taraqqiyotida ma'lum muammoni muvafaqqiyatli hal etishiga zamin yaratishi yoki uni inkor etishi mumkin.

Fanlararo bog'lanishlarga yondashuvlar turli-tuman bo'lib, mohiyati va ularning turlarini tushunishdagi ilmiy pozitsiyalari tadqiqotning fanlararo bog'lanishlar asosida hal qilinadigan konkret pedagogik vazifalari va ilmiy metodlar orqali aniqlashga imkon yaratadi.

Fanlararo hamkorlikning didaktik asoslari o'quv dasturini turli elementlar birikmasini nazarda tutuvchi o'quv bilimlarining integratsiyasida ifodalanadi, undan birgina hodisaning talqin qilinishidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish talabi kelib chiqadi, o'quv fanlarining bir-biriga muvofiqligi har bir o'quv fanining metodikasini muvaffaqiyatli ishlab chiqishning zaruriy didaktik sharti hisoblanadi.

Fanlararo hamkorlik tushunchasi o'z ichiga didaktikada talabalar faoliyatining bilimlar, mahorat, ko'nikma va usullari, shuningdek, bilimlarni berishdagi shakllar, usullar va uslublar orasidagi o'zaro aloqalarni qamrab oladi. Amaliy masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan harakatga kela turib, bilimlar sezilarli ravishda qayta o'zgaradi. Shundan kelib chiqib, bilimlarni o'zlashtirish samaradorligi ularni o'rganish bo'yicha faoliyat xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogikaga oid ilmiy izlanishlarda o'quv fanlarini o'qitishdagi tarqoqlikni bartaraf qilishga qaratilgan shakl, metod hamda vositalari tizimini, ularning asosi bo'lgan o'qitish va tarbiyalash jarayoni metodologiyasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Integratsiyalash mobaynida bir - biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarini ishlashi va o'rganish ob'ektining yaxlitligi tartibga solinadi. Bu umumiy qoidalarni qanday qilib maktab ta'limida qo'llash mumkin? Zamonaviy didaktik va metodikada ta'kidlanishicha, talabalarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvoffaqiyatlari ular dunyosining birligi haqida tushunchaning shakllanganligi bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi. Pedagogik jarayonida fanlararo hamkorlik asosida muayyan ko'nikma va malakalar shakllantiriladi, jumladan:

1. O'quv jarayonida fanlararo hamkorlik hodisasi murakkab va serqirra didaktik jarayondir.

2. Fanlararo hamkorlikning falsafiy asosi, fanlar va ilmiy tushunchalarning o'zaro bog'langan holda rivojlanishi taniqli olimlar tomonidan ochib berilgan. Ular o'quv jarayonida fanlararo hamkorlik qonuniyatlari metodologik-didaktik tamoyillar ichida yetakchi didaktik hodisa ekanligini ta'kidlab o'tganlar.

3. Fanlararo hamkorlik - ta'lim jarayoni va uning barcha o'qitilish shaklida didaktik shart-sharoitlarni takomillashtiruvchi didaktik hodisadir.

4. O'quv jarayonida fanlararo hamkorlikni ta'minlashda mazmunan bir-biriga yaqin o'quv fanlarining materiallari nihoyatda talabchanlik bilan muvofiqlashtiriladi.

5. O'rganilayotgan materialning ilmiy va amaliy darajasini oshirishga harakat qilinadi.

6. O'zaro aloqador bilimlar didaktik birlik sifatida yaxlitlashtiriladi;

7. Talabalar ongida barqaror va tizimlashtirilgan bilimlarni singdirish yo'llari ko'rsatiladi.

8. Umumlashtirilgan bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan vositalar belgilab beriladi.

O'quv jarayonida fanlararo hamkorlik ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy qismlariga to'g'ridan - to'g'ri ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'quv materialining mazmuni, o'qitish metodlari va texnik vositalar ushbu jarayonga muvofiq holda tanlanadi.

Mazkur vazifalarga hamohang tarzda o'quv jarayonida fanlararo hamkorlikni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida uning metodologik-didaktik infratuzilmasini vujudga keltirish, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligini ta'minlash lozim. O'quv jarayonida fanlararo hamkorlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatning samaradorligi asosan o'quv fanlari o'qituvchilarining ijodiy izlanishlari va faoliyatlarining mazmundorligiga ham bog'liqdir.

O'quv jarayonida fanlararo hamkorlikni ta'minlashda mazmun jihatdan o'zaro yaqin fanlarning manbalari nihoyatda talabchanlik bilan tanlanishi lozim. Shundagina o'rganilayotgan o'quv materialining ilmiy-amaliy darajasi oshadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishga katta ahamiyat berilayapti. Integratsiyalashgan darslarning tuzilishini o'rganishning barcha bosqichlarida o'rganilayotgan materiallarning aniqligini va izchilligini, puxta o'rganilganligini va o'zaro mantiqiy aloqalarini talab qiladi. Bunga dasturdagi o'quv materialning ixcham ekanligi, undan tashqari o'quv materilani o'rganishni tashkil etishning ba'zi zamonaviy usullarini kiritish orqali erishish mumkin.

Falsafa: qomusiy lug'atida "ideal" tushunchasi frantsuzcha "ideal", lotincha "idealus" so'zlaridan hosil bo'lgan bo'lib, "qiyofa", "mezon", "mukammallik" ma'nolarini anglatadi. Atama sifatida orzu-intilishlarning oliy maqsadini ifodalaydi deb yozilgan. Shuningdek, boshqa xorijiy manbada "ideal" tushunchasi yunoncha "idea" ya'ni "namuna", "me'yor" degan ma'noni bildirishi qayd etiladi. Bizningcha, ideal bu ideal obraz, me'yoriylik xususiyatiga ega bo'lib, muayyan insonlar yoki ijtimoiy guruh xatti-harakatining xarakteri, usulini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Biroq o'tmishda "ideal" tushunchasi bo'lsa-da, uni ifodalovchi reallik atamasining nomi yo'q edi. Buning o'rniga turli so'z va iboralar ishlatilgan va "ro'yolik", "hayotiylik" deb yuritilgan. Ideal ijtimoiy ahamiyatga molik muhim falsafiy kategoriya hisoblanadi. Shu tufayli ham ijtimoiy ideal "reallik" tushunchasi bilan chambarchas bog'liq ravishda talqin etiladi. Binobarin, "ijtimoiy ideal" atamasi o'zida ijtimoiy borliqning barcha jihatlarini bilish, anglash, ezgulikka qaratilgan bilimlar majmui, ikkinchidan esa ularga bo'lgan intilishni ifodalaydi. Demak, idealga mavjud reallikdan qoniqmaslik jamiyat, davlat hayotini takomillashtirish, yuksaklikka ko'tarish istagining ifodasi sifatida qarash mumkin. Va mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum va munosabatlarda ijtimoiy idealning kurtaklari shakllangan bo'ladi.

Idealning ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidagi o'rnini hamda bu boradagi turli yondashuvlar, tahlillar va talqinlarga murojaat qilib, mazkur muammo XX asrning 60-yillaridan boshlab xorijiy va O'zbekiston olimlari faoliyatida ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik ideallar tarzida tadqiq etilganligini ko'rish mumkin. Xususan, rossiyalik olimlar E. Il'inskiy «Ideal (lotincha idealis, idea-obraz) – oliy qadriyat: u yoki bu hodisani eng yaxshi tugashi; shaxsiy sifatlar namunasi, kishilararo munosabatlar xususiyatlarini belgilovchi namuna, qoida, ideal obraz» degan fikrni ilgari surgan bo'lsa, A.N. Yatsenko idealni insonning ijtimoiy faoliyati bilan bog'lagan holda maqsadning maqsadidir deb ta'riflaydi.

Kontseptual jihatdan ideal va ideallik juda ham keng tushuncha bo'lib, nomavjud, xayoldagi insonga voqelikdagi real, mavjud inson, hayotdagi hodisalar qiyoslanadi, ya'ni bor narsa yo'q narsa bilan o'lchanadi. Buning ustiga, ideal, yirik ma'noda, hozirgi zamonda ham, kelajakda ham bo'lmaydi, uning mavjudlik sharti - o'tgan zamon. Demak, idealga intilish shaxsning o'z zamonasidagi odatiy sharoitga sig'maslik, uni tezroq kengaytirish uchun qilingan xatti-harakatidir. Bu xatti-harakat uchun namunani inson, hozirgina aytganimizdek, kelajakdan topolmaydi, chunki namuna tarixiylikni, tajribaviylikni talab etadi; axloqiy idealga aylangan shaxs tarixiy tajribadagina mavjud bo'ladi va muayyan zamonga kelib, u ma'lum ma'noda.

Yakuniy qisim: Innovatsion va integratsion ta'lim muhitida o'quvchilarni aqliy va jismoniy qobiliyatlarini uyg'un holda rivojlantirish, fanlarni o'rganish bilan birga sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish, gigienik bilimlarini oshirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda o'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayonini to'g'ri va samarali tashkil etish vazifalari yuzaga kelmoqda. Ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash o'quvchilarda dars jarayonlari, turli to'garaklar, sport musoboqalari va sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan ommaviy tadbirlar asosida tayyorlab boriladi.

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlashga qaratilgan pedagogik jarayonning yangi shakli, metodikasi va ta'lim texnologiyasini tajriba-sinovdan o'tkazish va samaradorligini aniqlash mazkur bobning maqsadini tashkil etadi. Ushbu tajriba-sinov ishlari orqali o'quvchilarning ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga, sog'lom turmush tarzi madaniyatiga, gigienik muammolarga diyor bilim va ko'nikmalarining mavjud holatini aniqlash, tajriba va nazorat guruhlarida yangi metodika asosida ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayonini tashkil etib, samaradorlik darajasini maxsus sinovlar asosida aniqlash orqali xulosalar shakllantirildi. Unga ko'ra dissertatsiya doirasida ilgari surilgan gipoteza o'zini to'la oqladi va samaradorligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlarining umumiy maqsadi o'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash, ularda ana shu rivojlantirish jarayoni uchun asos sifatida ishlab chiqilgan nazariya, takomillashtirilgan darsdan tashqari ta'lim mazmuni hamda uni olib borishning samarali metod va vositalarini pedagogik amaliyotda sinab ko'rishdan iborat.

O'quvchilarni ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash tizimi samaradorligining dastlabki holatini aniqlash uchun savol va topshiriqlar tuzildi. Eksperiment o'tkazish uchun bitta shahar maktabi (Farg'ona shahar 13-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi) va bitta qishloq maktabi (Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumani 60-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi) tanlab olindi. Monitoring jarayoniga 1-4 sinflar, 5-7 sinflar, 8-9 sinflar va 10-11 sinflardan tuzilgan 8 ta shakllantirilgan sinf tashkil qilindi.

XULOSA

«Fanlararo hamkorlik asosida o'quvchilarning sport ideali haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasi» mavzusidagi dissertatsiya asosida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. O'quvchilarni sport ideali haqidagi bilimlarini rivojlantirishning xususiy vazifalariga ularning sog'lig'ini mustahkamlash, rivojlantirish va chiniqtirish, turli xildagi mehnat faoliyatiga tayyor bo'lish uchun shu yoshga xos bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirish hamda

hayot uchun kerakli harakat malakalari va ko'nikmalarini rivojlantirishni kiritish mumkin bo'ldai.

2. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni sport jarayoniga yo'anltirish tizimini takomillshashtirish va innovatsion metodikasini ishlab chiqishda sport faoliyatining xalqaro ta'lim tizimidagi o'rnini o'rganish, uning har bir insonning turmush tarziga singib borishining ahamiyatini tahlil qilishga oid ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirib borish talab etiladi.

3. O'quvchilardagi jismoniy irodalilik, chidamlilik, g'alabaga intiluvchanlik, epchillik kabi sifatlarining shakllanishida jismoniy tarbiya dars mashg'ulotlarini va sport to'garaklarining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Bu esa o'quvchilarda sportchiga xos xarakter, xislatlar jismoniy tarbiya va sport faoliyatida, to'garaklar orqali asta-sekin shakllanib borib, keyinchalik bu xislatlar uning doimiy sifatiga aylanadi.

4. Aksar o'quvchilar o'z xarakteriga mos bo'lmagan sport turini tanlab olishadi yoki ular uchun tanlovni ota-onalari amalga oshiradi. Bu esa ularda ushbu sport turiga yoki to'garakka qiziqishni va vijdonan harakat qilish istagini so'ndiradi. Ba'zi o'quvchilar ko'ngilchan bo'lganliklari bois ular sportning hujumkor turi bilan shug'ullana olmaydi yoki shug'ullansa ham uning natijalari samarador bo'lmasligi kelib chiqadi.

5. Jismoniy tarbiya o'quvchi-yoshlarning sog'liqlarini mustahkamlash bilan birgalikda organizmini chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishini hamda uning ishlash qobiliyatini oshirishni ta'minlaydi. O'quvchilarda o'z sog'liklarini asrash, uni doimo saqlash uchun g'amxo'rlik qilish tuyg'ularini rivojlantirish, o'quvchilarda yangi harakat turlari borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish ularni jismoniy tarbiyaga oid maxsus bilimlar bilan qurollantiradi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarni sport ideali haqidagi bilimlarini rivojlantirishda sportni ommalashtirishga doir tadbirlarni tashkil etish, yuqori natijalarga erishgan sportchilar, olimpiada va jahon chempionlari bilan uchrashuvlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxamadjonovich, X. M., & Abduqahhor o'g'li, J. F. (2024). DZYUDO SAN'ATI: TEXNIKA VA TAFAKKUR ORQALI O'ZO'ZINI HIMOYA QILISHNI KUCHAYTIRISH. *Научный Фокус*, 2(13), 320-321.

2. Maxamadjonovich, X. M. (2024). Kurash turlarida klassifikatsiya, sistematika va terminologiyaning ahamiyati. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY*, 641-646.

3. Xamrolijev, M. (2024). Fanlararo hamkorlik asosida o'quvchilarning sport ideali. *Research and Implementation*, 122-124.

4. Xamrolijev, M. (2024). Fanlararo hamkorlikning sport idealiga ta'siri. *Research and Implementation*, 120-122.

5. Maxamadjonovich, X. M., & Abduqahhor o'g'li, J. F. (2024). DZYUDO BILAN SHUG'ULLANISHNING AFZALLIKLARI: KENG QAMROVLI TAHLIL. *Научный Фокус*, 2(13), 318-319.

6. Maxamadjonovich, X. M., & Abduqahhor o'g'li, J. F. (2024). DZYUDO SAN'ATI: TEXNIKA VA TAFAKKUR ORQALI O'ZO'ZINI HIMOYA QILISHNI KUCHAYTIRISH. Научный Фокус, 2(13), 320-321.

7. Maxamadjonovich, X. M. (2024). O'QUV-MASHG'ULOT YIG'ININI TASHKILLASHTIRISH VA O'TKAZISH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(4), 198-200.